



UDK:103.9

Sadoqatxon NIGMATOVA

Farg'ona davlat universiteti tayanch doktoranti

E-mail: nigmatovasadoqat1@gmail.com

Tarix fanlari doktori, dotsent G'. Raxmatov taqrizi asosida

FORMATION AND DEVELOPMENT OF THE ACTIVITIES OF NON-STATE EDUCATIONAL INSTITUTIONS AND PRIVATE SCHOOLS IN NAMANGAN REGION IN 1991–2021

Annotation

This article presents a historical and comparative analysis of the development of private schools within the non-state education system in the Namangan Region from 1991 to 2021. The study examines individual tutoring activities in preparation for entrance examinations to higher education institutions amid the economic difficulties of the early years of independence, administrative barriers to these activities in the 2000s, and reforms after 2017. The improvement of the legal framework and the stages of development of this system are analyzed. The article examines the abandonment of the monopoly in the public education system, the entry of the private sector into education, reforms since 2017, and the impact of demographic growth in the Namangan region on demand for private schools.

Key words: Private school, non-governmental educational institution, Namangan region, educational reforms, public-private partnership, innovative education, tutoring, preparation of applicants, educational services, licensing, investments, demographic factor.

ФОРМИРОВАНИЕ И РАЗВИТИЕ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ НЕГОСУДАРСТВЕННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ И ЧАСТНЫХ ШКОЛ В РЕГИОНЕ НАМАНГАН В 1991–2021 ГОДАХ

Аннотация

В данной статье представлен историко-сравнительный анализ процессов формирования частных школ негосударственной системы образования в Наманганской области в период 1991–2021 годов. Исследование охватывает деятельность по индивидуальному репетиторству в рамках подготовки к вступительным экзаменам в высшие учебные заведения в условиях экономических трудностей первых лет независимости, административные препятствия для этой деятельности в 2000-х годах и реформы после 2017 года. Анализируются усовершенствование правовой базы и этапы развития данной системы. В статье рассматриваются отказ от монополии в государственной системе образования, вступление частного сектора в образование, реформы после 2017 года и влияние демографического роста в Наманганской области на спрос на частные школы.

Ключевые слова: Частная школа, негосударственное учебное заведение, Наманганская область, образовательные реформы, государственно-частное партнерство, инновационное образование, репетиторская деятельность, подготовка абитуриентов, образовательные услуги, лицензирование, инвестиции, демографический фактор.

1991–2021-YILLARDA NAMANGAN VILOYATIDA NODAVLAT TA'LIM MUASSASALARI XUSUSIY MAKTABLAR FAOLIYATINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI

Аннотация

Mazkur maqolada 1991–2021-yillar davomida Namangan viloyatida nodavlat ta'lim tizimi xususiy maktablarining shakllanish jarayonlari tarixiy-qiyosiy tahlil qilingan. Tadqiqotda mustaqillikning ilk yillaridagi iqtisodiy qiyinchiliklar davrida oliy ta'lim muassasalari kirish imtihonlariga tayyorgarlik ko'rsatuvchi yakkatartibdagi repitetorlik faolyatlari, 2000-yillardagi bu faoliyatga ma'muriy to'siqlar va 2017-yildan keyingi islohotlar yoritilgan. Ushbu tizimning huquqiy asoslarini takomillashuvi va rivojlanish bosqichlari tahlil qilingan. Maqolada davlat ta'lim tizimidagi monopoliyadan voz kechish, xususiy sektorning ta'limga kirib kelishi, 2017-yildan keyingi islohotlar va Namangan viloyatidagi demografik o'sishning xususiy maktablarga bo'lgan talabga ta'siri yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Xususiy maktab, nodavlat ta'lim muassasasi, Namangan viloyati, ta'lim islohotlari, davlat-xususiy sheriklik, innovatsion ta'lim, repitetorlik faoliyati, abituriyentlar tayyorlash, ta'lim xizmatlari, litsenziyalash, investitsiya, demografik omil.

Kirish. 1991-yilda O'zbekiston davlat mustaqilligini qo'lga kiritgach, ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda tub burilishlar davri boshlandi. Ta'lim tizimi ham bundan mustasno bo'lmadi. Mustaqillikning dastlabki kunlardan ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, uni mafkuraviy tazyiqlardan xoli etish va jahon andozalariga moslashtirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. Ayniqsa, bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat ta'lim tizimi bilan bir qatorda nodavlat ta'lim sektorining shakllanishi jamiyatda sog'lom raqobat muhitini yaratish va ta'lim sifatini oshirishning muhim omili bo'ldi. "Ta'lim to'g'risida" gi (1992-yil) qonunda ta'lim bozorini shakllantirish

va raqobat muhitini yaratish, ta'lim sifatini yaxshilash, zamonaviy dars jarayonlarni tashkillash, ta'lim olish uchun ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar yaratish belgilandi.[1]. Namangan viloyati o'zining yuqori demografik o'sishi, aholi zichligi va ilm-fanga bo'lgan an'anaviy rag'bat bilan ushbu jarayonlarda alohida o'rin tutadi. 1991-2021-yillar oralig'idagi o'ttiz yillik davr viloyatda xususiy maktablarning "yashirin" repitetorlik shaklidan zamonaviy, xalqaro standartlarga javob beruvchi yirik ta'lim majmualarigacha bo'lgan murakkab rivojlanish yo'lini bosib o'tdi. Mazkur maqolada 1991-2021-yillar davomida Namangan viloyatida xususiy sektorning

shakllanishi va rivojlanish bosqichlari tarixiy-qiyosiy tahlil qilingan. Tadqiqotda mustaqillikning ilk yillaridagi huquqiy asoslar, 2001-2015-yillardagi turg'unlik davri va 2017-yildan keyingi tizimli islohotlar natijasida xususiy maktablar sonining keskin ortishi dinamikasi yoritilgan. Shuningdek, maqolada Namangan viloyatida xususiy maktablarning geografik tarqalishi, ta'lim sifatiga ta'siri va tahlillari keltirilgan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Ushbu tadqiqot ishida asosan tarixiy-qiyosiy tahlil, "Ta'lim to'g'risida"gi (1992, 1997, 2020-yillar) qonun, statistik ma'lumotlarni o'rganish va umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Namangan viloyati statistika boshqarmasining yillik hisobotlari va viloyat xalq ta'limi boshqarmasining arxiv ma'lumotlari statistik tahlil uchun manba bo'lib xizmat qildi. Tadqiqot jarayonida tarixiy-qiyosiy tahlil, statistik guruhlash va muayyan vaziyatni o'rganish metodlaridan foydalanildi. Shuningdek, hozirgi kunda xususiy maktabda faoliyat yuritayotgan ishchi-xodimlar bilan suhbat jarayonlari o'tkazildi. Mavzuga oid ilmiy adabiyotlar, huquqiy-me'yoriy hujjatlar va statistik ma'lumotlar tahlil qilindi.

Tadqiqot metodologiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017-yil 15-sentabrdagi PQ-3276-son "Nodavlat ta'lim xizmatlari ko'rsatish faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"[2], O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-sentabrdagi "Nodavlat ta'lim xizmatlari ko'rsatish faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori hamda 2019-yil 24-dekabrda "Nodavlat ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 1028-son qarori kabi me'yoriy hujjatlar ham tahlil qilindi [3]. O'zbekistonda nodavlat ta'lim muassasalari faoliyatining huquqiy asoslari bir qator qonunchilik hujjatlarida o'z aksini topgan. Jumladan, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun (2020) nodavlat ta'lim tashkilotlarining huquqiy maqomini belgilab beradi. Qonunda nodavlat ta'lim tashkilotlari faoliyatining asosiy qoidalari, ularning huquq va majburiyatlari, davlat organlari bilan o'zaro munosabatlari belgilangan [4]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining, Sh.M.Mirziyoyevning 2023-yil 26-maydagi PF-79-son "Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" gi farmonlari xususiy maktablarning rivojlanishiga zamin yaratdi [5]. Yuqoridagi sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar ijrosi doirasida bugungi kunda O'zbekistonda xususiy ta'lim muassasalarining o'rni va ahamiyati ortib bormoqda.

Tahlil va muhokamalar. Bu davr mobaynida xususiy maktablar faoliyatining shakllanishi va rivojlanishi quyidagi davrlarga bo'linadi:

1. 1991–2001-yillarda xususiy maktablarning paydo bo'lishi va shakllanishi davri:

Mustaqillikning dastlabki yillarida Namangan viloyati iqtisodiy o'tish davrining qiyinchiliklarini boshdan kechirishiga qaramasdan, ota-onalarning farzandini qo'shimcha yakkatartibdagi pullik darslar yani repitetorlik kurslariga ehtiyoji sezildi. Dastlab, rasmiy maqomga ega bo'lgan yagona tuzilmalar OTMLar qoshidagi "Tayyorlov kurslari" (Podkurs) shakllangan edi. Ular xo'jalik hisobida faoliyat yuritib, tinglovchilarga asosan universitetga kirishda imtiyoz berish yoki shunday va'da qilish evaziga o'qitgan. Biroq, 1990-yillarning o'rtalarida test tizimining joriy etilishi bu kurslarning samarasizligini ko'rsatib qo'ydi va xususiy sektorga ehtiyojni oshirdi. 1992-yilgi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun xususiy mulkchilikka asoslangan ta'limga ruxsat berdi. 1994-yilda esa Davlat test markazi faoliyatining boshlanishi bilan repitetorlikka aholining ehtiyoji oshdi. Huquqiy tamonlama nodavlat ta'limga ruxsat berilgan bo'lsa-da, amalda

xususiy maktab ochish uchun iqtisodiy to'siqlar yuqori, bo'lib, aholining ijtimoiy yashash sur'ati ham past edi. Iqtisodiy qiyinchiliklar va aniq litsenziyalash mexanizmi to'liq tashkil qilinmaganligi sababli sof xususiy maktablar kam edi. Bunday omillar bo'lishiga qaramasdan, 1997-yildagi "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"dan so'ng viloyatda dastlabki xususiy boshlang'ich sinflar va pullik o'quv kurslari paydo bo'la boshladi [6]. Ammo bu davrda xususiy maktablar hali umumiy ta'lim tizimida sezilarli ulushga ega emas edi. 1991-2001-yillarda Namangan viloyatida asosan repitetorlik faoliyati va kichik o'quv kurslari rivojlandi. Haqiqiy ma'nodagi litsenziyaga ega xususiy umumta'lim maktablari barmoq bilan sanarli darajada edi. Aholi orasida ham "ta'lim bepul bo'lishi kerak" degan g'oyaning kuchliligi va iqtisodiy imkoniyatlarning cheklanganligi xususiy maktablarning ommalashuviga to'sqinlik qildi.

2. 2001–2016-yillar turg'unlik davri:

Ushbu yillarda Namangan viloyatida xususiy maktablar uchun murakkab kechdi. O'n ikki yillik majburiy ta'lim tizimining joriy etilishi barcha bitiruvchilarni davlat tasarrufidagi kollej va litseylarga yo'naltirishni ko'zda tutardi. Bu esa xususiy maktablar uchun bozor imkoniyatlarini cheklab qo'ydi. O'quvchilar, abituriyentlar va ota-onalarning qo'shimcha pullik-repitetorlik darslariga bo'lgan talabini oshirdi. Natijada, ota-onalarning sifatli ta'limga bo'lgan ehtiyoji xususiy sektorga ko'cha boshladi. Viloyatda nodavlat ta'lim muassasalari o'quv markazlar faoliyati yo'lga qo'yila boshladi. 2016-yilga qadar viloyatdagi nodavlat ta'lim muassasalari asosan til o'rgatish, oliy ta'lim muassasalariga tayorlash markazlari ko'rinishida edi.

3. 2017–2021-yillar tizimli o'sish davri.

2017-yildan boshlab O'zbekistonda yangi siyosiy va iqtisodiy islohotlar davri boshlandi. Prezident Shavkat Mirziyoyevning tashabbusi bilan nodavlat ta'lim sektori davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanma boshlandi. Mamlakatda tadbirkorlikka, jumladan, ijtimoiy tadbirkorlikka bo'lgan munosabat tubdan o'zgardi. Sh.M.Mirziyoyevning 2017-yil 15-sentabrdagi PQ-3276-son "Nodavlat ta'lim xizmatlari ko'rsatish faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-sentyabrdagi "Nodavlat ta'lim xizmatlari ko'rsatish faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori sohada inqilobiy o'zgarish yasadi [7]. Bu davrda Namangan viloyatida xususiy maktablarga zamonaviy jihozlar olib kirishda bojxona to'lovlaridan ozod qilish va soliq imtiyozlari ham berildi. Davlat-xususiy sheriklik asosida bo'sh turgan bino va yerlarning tadbirkorlarga "nol" qiymatda yoki uzoq muddatli ipoteka kreditlari berildi. Xususiy maktablar uchun yangi imkoniyatlar ochildi, maktab ochish tartiblari osonlashtirildi. Tadbirkorlarga 2025-yilgacha soliq imtiyozlari berilishi va litsenziya olishning soddalashtirilishi natijasida xususiy sektorlar tizimi sog'lom raqobat asosida rivojlandi. [8].

2017-yilda islohotlar boshlanishi davrida faqat barmoq bilan sanarli ikki, uchta xususiy maktablar ochilgan bo'lsa, 2018-yilda maktablar soni 9 - 11 taga, 2019-yilda esa, 24 - 26 taga davlat-xususiy sheriklik asosida bo'sh binolarning berilishi hisobiga keskin o'sish kuzatildi. 2020-yilda pandemiya bo'lishiga qaramay, 38 - 42 ta xususiy maktablar asosan boshlang'ich sinfga bo'lgan talabning hisobiga ortdi. 2021-yilga kelib bu ko'rsatkich 53 - 55 tani tashkil qildi. Viloyatning deyarli barcha tuman markazlarida kamida bittadan xususiy maktab paydo bo'ldi [9]. Demak, 2018-2021-yillar oralig'ida Namangan viloyatida xususiy maktablar soni keskin oshdi. Agar 2017-yilda viloyatda sanoqli xususiy maktab mavjud bo'lgan bo'lsa, 2021-yilga kelib bu ko'rsatkich bir necha o'n barobarga o'sdi. Dastlab faqat Namangan shahrida ochilgan

maktablar (masalan “Smart school”, “Diplomat international school”, “Istiqlol”, “Wunderkind” kabi brendlar ostida yoki mahalliy tadbirkorlar tomonidan) keyinchalik Chust, Kosonsoy, Uchqo'rg'on, To'raqo'rg'on tumanlarida ham paydo bo'la boshladi [10]. Bu xususiy maktablari asosan xorijiy tillar - ingliz, arab va rus tillarini chuqurlashtirilgan holda o'qitish, aniq fanlar va IT, robototexnika va dasturlash elementlarini boshlang'ich sinfdanoq joriy etish, yo'nalishlariga ixtisoslashdi. Ayniqsa, boshlang'ich sinflarda darslarni kichik guruhlar kesimida (15-18 nafar) olib borilishi ota-onalarning e'tiborini jalb qiluvchi asosiy omil bo'ldi va bu holat xususiy maktablarga bo'lgan talabning oshishiga olib keldi [10].

Xulosa va takliflar. 1991-2021-yillarda Namangan viloyatida xususiy maktablarning shakllanishi murakkab va bosqichli jarayonni boshdan kechirdi. 2016-yilgacha bo'lgan turg'unlik davridan so'ng, 2017-2021-yillarda amalga oshirilgan davlat islohotlari natijasida sohada tizimli o'sish kuzatildi. Namanganlik tadbirkorlarning faolligi va aholining sifatli ta'limga bo'lgan talabi viloyatda xususiy ta'lim bozorining jadal shakllanishiga olib keldi. 2021-yil yakunlariga ko'ra, xususiy maktablar nafaqat ta'lim sifatini oshirishda, balki davlat maktablaridagi yuklamani kamaytirishda va yangi ish o'rinlarini yaratishda muhim ijtimoiy institutga aylandi. Kelgusida raqobat muhitining kuchayishi ta'lim sifatining yanada oshishiga va narxlarning maqbullashuviga xizmat qilishi kutilmoqda.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni. 1992. 02.07. 636-XII-son. 1-bet. <https://lex.uz/docs/-56418>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Mirziyoyev Sh.M. 2017-yil 15-sentabrdagi PQ-3276-son “Nodavlat ta'lim xizmatlari ko'rsatish faoliyatini yanada ivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori. 1-bet. [lex.uz.https://lex.uz.doc. 4664567](https://lex.uz/doc/4664567)
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Mirziyoyev Sh.M 2019-yil 24-dekabrdagi “Nodavlat ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 1028-sonli qarori. 3-bet. <http://lex.uz/uz/docs/-4664567>
4. O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni. 23.09.2020 yildagi O'RQ-637-son. 3-bet. <https://lex.uz/docs/-5013007>
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Mirziyoyev Sh.M. 2023-yil 26-maydagi PF-79-son “Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida” gi farmoni. 4-bet. [Lex.uz.https://lex.uz.doc](https://lex.uz/doc).
6. “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”. 29.08.1997-yildagi 463-I-son.4-bet. <https://lex.uz/docs/-48401>
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-sentabrdagi “Nodavlat ta'lim xizmatlari ko'rsatish faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori // Халқ сўзи. 2017 йил 18-сентябрь. 4-bet.
8. Namangan viloyati Xalq ta'limi boshqarmasi va Ta'lim sifatini nazorat qilish inspeksiyasi viloyat bo'limining 2019-2021 yillik hisobotlari.3-bet.
9. Namangan viloyati Statistika boshqarmasi. “Namangan viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi” 2021. Statistik to'plam.2-bet.
10. Namangan viloyati Xalq ta'limi boshqarmasi va Ta'lim sifatini nazorat qilish inspeksiyasi viloyat bo'limining 2019-2021 yillik hisobotlari.3-bet.